

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZIYEV NOZIM ASFANDIYOROVICH

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI
MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

(9-sinf misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich

Informatika va axborot texnologiyalari fanini multimediya vositalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (9-sinf misolida)..... 5

Файзиев Нозим Асфандиёрович

Совершенствование методики преподавания предмета информатика и информационные технологии на основе мультимедийных средств (на примере 9-класса)23

Fayziev Nozim Asfandiyorovich

Improving the methodology of teaching informatics and information technologies based on multimedia tools (in example of class 9).....45

Elon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

FAYZIYEV NOZIM ASFANDIYOROVICH

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI
MULTIMEDIYA VOSITALARI ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(9-sinf misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Ped1412 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://buxdu.uz/ixtisoslashgankengash>) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Lutfillayev Maxmud Xasanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mo'minov Bahodir Boltaboyevich
texnika fanlari doktori (DSc), professor.

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "6" *oktabr* soat *10-00* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365)225-29-14, faks: (0365) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*367*-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365)225-29-14, faks: (0365) 221-27-07, e-mail: buxdurektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "23" *ix* kuni tarqatildi

(2023 yil "23" *09* dagi *10* raqamli reyestr bayonnomasi).



S.Q. Qahhorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d professor

G.G. Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d (PhD)

H.O. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'limni axborotlashtirish sharoitida multimediali o'qitish vositalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), YUNISEF, Butun jahon banki hamkorligida Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida bo'lib o'tgan ta'lim muammolari Forumida mazkur xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan davr ta'lim konsepsiyasida "ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetaklovchi muhim faoliyat" ekanligi e'tirof etilgan. Rivojlangan mamlakatlarida ta'lim tizimini axborotlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikasiyalarini joriy etish asosiy strategik yo'nalishga aylanib bormoqda.

Dunyoda ta'limni axborotlashtirish asosida virtual ta'lim texnologiyalari, axborot resurslari, multimediali elektron o'quv majmualarni shakllantirish va ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish vazifalari qo'yilmoqda. Multimediali o'qitish vositalari, elektron ta'lim resurslari, darslik va o'quv adabiyotlarni elektron tarzda axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida takomillashtirish tajribali, malakali va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Hozirda multimedia vositalari asosida o'qitishning mazmuni, tarkibiy tuzilishi uzviy hamda ilmiy asoslangan tarzda ifoda etishini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning ilmiy metodik muammolariga va ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning bilan bir qatorda ta'limni axborotlashtirish sharoitida multimediali texnologiyalar (ovoz, video, tasvir, grafika, imitasion modellar) asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmunini to'liq qamrab oladigan tizimli tadqiqotga ehtiyoj mavjudligi dissertasiya ishining dolzarbligini belgilaydi. Hozirgi paytda ta'lim jarayonini avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirishning qulay vositalaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdir. Kompyuterlarning keng qo'llanilishi o'qituvchilar tomonidan metodik qo'llanmalarni tayyorlashdagi murakkabliklarni amaliy yordam berish jarayonni avtomatlashtirish imkonini beradi. Turli xil elektron o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalarining kompyuterda taqdim etish oson, qulay va o'zgartirish kabi afzalliklarga ega. Yuqoridagi fikrlar asosida ushbu tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mazmunini boyitish maqsadida multimediali elektron qo'llanma yaratish belgilagan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5349-son, 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida" PF-5099-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

PF-60-son, 2022-yil 21-dekabrda “Yangi o‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-296-son Farmonlari, 2020-yil 6-oktyabrda “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integrasiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4851-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyunda “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertasiyaning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi olimlarning olib borgan fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga tayanildi.

Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish va ta’limni axborotlashtirish vositalarini yaratish hamda ulardan foydalanishning nazariy asoslari bo‘yicha respublikamiz olimlaridan M.H.Lutfillayev, A.A.Abdukodirov, U.Sh.Begimkulovlar izlanish olib borishgan.

Ta’limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning metodik masalalari hamda ta’limda pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha M.M.Abdurazakov, M.M.Aripov, N.I.Taylakov, G.Abilkasimova, A.X.Abdullayev, B.B.Mo‘minov, H.O.Jo‘rayev, M.A.Fayziyev, Q.T.Olimovlar tomonidan urganilgan.

Multimediali o‘qitish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash muammolari bo‘yicha mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan S.A.Beshenkov, O.M.Gudireva, T.A.Gudkova, H.Yu.Postalyuk, Yu.A.Prozorova, I.V.Robert, Ye.Ye.Smirnova, M.A.Surxayev, A.R.Taneyeva, N.D.Ugrinovichlar nazariy jihardan tadqiq qilganlar.

Xorij mamlakatlarida Informatika fanini o‘qitish metodikasini ishlab chiqishning turli jihatlari bo‘yicha V.S.Lednev, A.A.Kuznesov, S.A.Beshenkov, T.B.Zaxarova, K.K.Kolin, M.P.Lapchiklarning tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan.

Yuqoridagi tahlil qilingan ishlarda axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi va metodologiyasini yangilash hamda axborot kommunikasiya texnologiyalarini kasbiy pedagogik faoliyatda foydalanishga tayyorlash, informatika o‘qituvchilarini shakllantirish mazmuni tadqiq qilingan va uning samaradorligini oshirishda o‘ziga xos usullardan foydalanish nazarda tutilgan. O‘rganilgan nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, umumiy o‘rta ta’lim

maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘rganish va tahlil etish fandan egallagan bilim ko‘nikmalarini oshirish hamda uni takomillashtirish muammoning dolzarbligi, zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi tadqiqot zaruriyatini belgilaydi.

Dissertasiya tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “OT – Atex -2018-519 “Kompyuter imitasion modellar asosida virtual resurslar Web – ilovasini dasturiy ta’minotini yaratish” (2018-2020 yy) mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmunini boyitish maqsadida multimediali o‘quv qo‘llanmadan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga doir ilmiy nashrlarni tahlil qilish va mentoring, meta kompetensiyalar, stejksolder, shaxsiy ta’lim kabi texnologiyalardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda multimediali elektron qo‘llanmalar yaratish mumkin bo‘lgan mavzularni saralab olish va o‘quvchilarni tasavvur qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

“Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha yaratilgan multimediali elektron qo‘llanma asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘qituvchilarga multimediya vositalarini joriy etish samaradorligini asoslash;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini multimediali elektron qo‘llanmadan ta’lim jarayonida foydalanish asosida o‘qitishni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani uchun multimediali elektron qo‘llanmalar yaratish va undan foydalanish jarayoni belgilangan bo‘lib, Buxoro viloyati Buxoro shahri va Shofirkon tumani, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani hamda Samarqand viloyati Urgut tumani va Narpay tumanlari 9-sinflari o‘quvchilardan 605 nafar o‘quvchilar respondent sifatida jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani uchun multimediali elektron qo‘llanmani yaratish va undan foydalanish shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada pedagogik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani oʻqitish metodikasining didaktik imkoniyatlari interaktiv darslarni tashkil etish jarayoni, muvofiqlik va izchillik, tashkiliy-metodik, texnologik-jarayonli tamoyillar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va oʻz-oʻzini baholash kabi indikatorlarga ustivorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

oʻquvchilarni “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kreativ fikrlashga qaratilgan veb-texnologiyalar asosida oʻzlashtirish darajasini aniqlovchi meʼzonlar, hamkorlik printsiplarini assimilatsiyalashga asoslangan multimediyaviy vositalarini 3D loyihalash orqali sunʼiy intellekt jarayonlarini tasavvur qilish koʻnikmalari rivojlantirilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchilariga, maktab darsliklari boʻyicha didaktik imkoniyatlarni, oʻquvchilarining oldindan tasavvur qilish, bashorat qilish, gipotezalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, yaratuvchanlik, kreativlik kabi kompetensiyalarini rivojlantirishda nutqiy va lingvistik multimediyaviy vositalarini integrativ joriy etish samaradorligi asoslangan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan amaliy darslar samaradorligini oʻquvchilarning dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga ijobiy taʼsir etuvchi virtual-intellektual borliq mazmuniga oid multimediyaviy omillar asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini oʻqitish boʻyicha tadqiqot ishlari tahlil qilindi va zamonaviy metod va texnologiyalar asosida takliflar ishlab chiqildi;

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fani misolida darslarni tashkil etish modeli hamda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida joriy etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan multimediali elektron qoʻllanma yaratishda mentoring, meta kompetensiya, stejkxolder texnologiyalaridan foydalanib, oʻquv jarayonini tashkil etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, qoʻllanilgan usullar, muammoga falsafiy, pedagogik-psixologik yondashuvlar hamda respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari toʻplamlari, oliy attestasiya komissiyasi eʼtirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, keltirilgan tahlillar va tajriba sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy oʻrta taʼlim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” dars mashgʻulotlari uchun multimediali elektron qoʻllanmaning yaratish va modeli bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini multimediali elektron qoʻllanmalar asosida oʻqitish mazmunini takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Informatika va axborot texnologiyalari fanini multimediya vositalari asosida oʻqitish metodikasini takomillashtirish boʻyicha tadqiqot natijalari asosida:

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani oʻqitish metodikasining didaktik imkoniyatlari interaktiv darslarni tashkil etish jarayoni, muvofiqlik va izchillik, tashkiliy-metodik, texnologik-jarayonli tamoyillar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va oʻz-oʻzini baholash kabi indikatorlarga ustivorlik berish orqali aniqlashtirilganligiga oid maʼlumotlardan Samarqand davlat chet tillar institutining “I-2016-4-15 Kutubxona resurslaridan mobil aloqa asosida tarmoqdan foydalanishning dasturiy taʼminotini yaratish va tatbiq etish (oliy taʼlim muassasalari misolida)” (2016-2018 y.y.) mavzusidagi grant loyihasining “Elektron darsliklar kutubxonasini yaratish” qismini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 24-yanvardagi 121/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini oʻqitishni tashkil qilishning multimediali, mentoring, meta kompetensiya, steykxolder kabi texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga erishilgan;

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan amaliy darslar samaradorligini oʻquvchilarning dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga ijobiy taʼsir etuvchi virtual-intellektual borliq mazmuniga oid multimediya vositalari asosida oʻqitish metodikasini takomillashtirishga oid maʼlumotlardan Samarqand davlat chet tillar institutining “OT–Atex-2018-519 Kompyuter imitasion modellar asosida virtual resurslar Web - ilovasini dasturiy taʼminotini yaratish” (2018-2020 y.y.) mavzusidagi grant loyihasining “Multimedia ishlanmalar asosida taʼlim jarayonini takomillashtirish” qismini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 24-yanvardagi 121/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Natijada, oʻquvchilarning “Informatika va axborot texnologiyalari” fani boʻyicha algoritmlar nazariyasiga oid bilimlari rivojlantirilgan;

oʻquvchilarni “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kreativ fikrlashga qaratilgan veb-texnologiyalar asosida oʻzlashtirish darajasini aniqlovchi meʼzonlar, hamkorlik printsiplarini assimilatsiyalashga asoslangan multimediya vositalarini 3D loyihalash orqali sunʼiy intellekt jarayonlarini tasavvur qilish koʻnikmalarini rivojlantirishga oid maʼlumotlardan Samarqand davlat chet tillar institutining “I-2016-4-15 Kutubxona resurslaridan mobil aloqa asosida tarmoqdan foydalanishning dasturiy taʼminotini yaratish va tatbiq etish (oliy taʼlim muassasalari misolida)” (2016-2018 y.y.) mavzusidagi grant loyihasining “Elektron darsliklar kutubxonasini yaratish” qismini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 24-yanvardagi 121/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining “Informatika va

axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha o‘quvchilarning multimediali elektron qo‘llanmadan foydalanish ko‘nikmalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jami 28 ta, shu jumladan, 7 ta xalqaro jurnallar, 4 ta mahalliy jurnallar va 11 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta nashr ishi, jumladan 1 ta EHM uchun yaratilgan elektron o‘quv qollanmaga O‘zbekiston Respublika Intelektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi olingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi kirish, uch bob, 130 bet matn, rasmlar, jadvallar, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Informatika va axborot texnologiyalari faniga doir elektron o‘quv resurslar yaratishning nazariy-metodik jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va respublika olimlarining axborot-kommunikasion texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish borasida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili, o‘qitish metodikasining didaktik imkoniyatlari interaktiv darslarni tashkil etish jarayoni, muvofiqlik va izchillik, tashkiliy-metodik tamoyillar hamda o‘quv jarayonida multimediali elektron qo‘llanmalardan foydalanish va o‘quv-o‘rganish jarayonida turli ko‘rinishdagi modellardan foydalaniganligi asoslangan.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini aks ettiradigan muhim sohalardan biri – bu ta‘lim sohasi hisoblanadi. Ta‘lim alohida mamlakatlar va butun insoniyatning kelajagini ta‘minlaydigan omil bo‘lib, jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi va istiqbolini belgilaydigan kuchdir. So‘nggi yillarda respublikamizda ta‘lim jarayonini elektron resurslar asosida takomillashtirish va o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga katta ahamiyat berilmokda. Shu bois zamonaviy elektron kurslarni yaratish va ta‘lim jarayoniga tatbiq etish hozirgi kunda ta‘lim tizimini takomillashtirishning dolzarb muammosiga aylandi. Bu borada elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi.

Multimediali elektron qo'llanmalar – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni muloqot usulida taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manbadir. Elektron o'quv adabiyotlari turli kategoriya bo'yicha tasniflanib, gipermatnli elektron qo'llanma audir va video elementlari bilan, multimediali elektron qo'llanmaga giper matn, audio, video, animatsiyalar va imitasion modellar kabi o'quv elektron nashrlar misol bo'ladi.

Tajribadan ma'lumki, inson eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolari yordamida olingan ma'lumotlarni bir necha marotaba kuchliroq eslab qolishi tabiiy. Eshitish a'zolaridan farqli ravishda, ko'rish a'zolaridan olinayotgan ma'lumotlar qayta kodlashtirilmay, to'g'ridan-to'g'ri xotiraga o'tadi va uzoq saqlanadi.

Multimediali elektron qo'llanmalar an'anaviy darsliklarga qaraganda, o'quv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Multimediali elektron qo'llanmalar o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlashlari uchun mo'ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi kerak. Multimediali elektron darsliklar asosida o'quv jarayonini tashkil qilish o'quv materiallarini fanning so'nggi yutuqlari asosida tezkor yangilab borish kabi afzalliklari mavjud bo'lib an'anaviy darsliklarga nisbatan multimediali elektron darslikning ustunligi uning "intellektual" kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ma'lumotlarni o'z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatiga ega ekanligidadir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qitish metodikasining didaktik imkoniyatlari interaktiv darslarni tashkil etish multimediali elektron qo'llanmalarining ta'lim berishga mo'ljallangan qismida o'quv materiallarini taqdim etganda uning o'quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e'tibor beriladi. Taqdim etilayotgan o'quv materiallari ta'lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko'rgazmali va yaxshi o'zlashtirish uchun izohli ma'lumotlar tavsiya etilgan bo'lishi, shuningdek, muvofiqlik va izchillik, tashkiliy-metodik, texnologik-jarayonli tamoyillar hamda motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmalar asosida o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini qo'llashda mavjud gipermatn, gipermedia, grafika, animasiya va ovoz dasturlarining mavjudligi katta samara beradi. Chet ellar va respublikamizda to'plangan tajribalar tahlil qilinganda axborot texnologiyalarining pedagogik dasturiy vositalari o'qitishda yangi vositalar sifatida o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ana'naviy o'qitish vositalaridan keskin farq qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmalarining o'quv jarayonida o'quv materiallaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan o'quv vositasi sifatida alohida o'rni bor.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmalardan an'anaviy darslikka qaraganda o'quv materiallarini namoyish qilish uchun keng

imkoniyatlar yaratilgan. Bu elektron qo'llanma o'quvchilarning ko'proq mustaqil ishlashlari uchun mo'ljallangan didaktik funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Shunday qilib, multimediali elektron qo'llanmalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ularning pedagogik tomonlaridan tashqari, psixologik va gigiyenik tomonlarini ham e'tiborga olish, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini va ularning bu jarayonda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu qo'llanmadan foydalanish jarayonida multimedia vositalaridan to'liq foydalaniladi.

Dissertasiyaning **“Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan multimediali elektron qo'llanmalardan foydalanish metodikasi** deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarni “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kreativ fikrlashiga qaratilgan veb-texnologiyalar asosida o'zlashtirish darajasini aniqlovchi me'zonlar, hamkorlik printsiplarini assimilatsiyalashga asoslangan multimediya vositalarini 3D loyihalash orqali sun'iy intellekt jarayonlarini tasavvur qilish ko'nikmalari boyitilgan.

Elektron ta'lim resurslari asosida o'quv jarayonini tashkil etishda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarga o'qishga qiziqishni yanada orttiradi, ta'limning interaktiv xususiyati asosida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o'quv materiallarini o'zlashtirilishining samaradorligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda elektron ta'lim resurslari real hayotlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini beradi, o'quv materiallarining uzlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini bildiradi. Elektron ta'lim resurslarini yaratish katta mahorat talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayondir.

“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish boshqa fanlarga nisbatan alohida o'rinda turadi. Buning boisi, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani zamonaviy kompyuter va dasturiy ta'minotning asosini tashkil etadi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Algoritm lash asoslari”, “Algoritm tushunchasi va uning xossalari”, “Algoritm turlari va tasvirlash usullari”, “Chiziqli algoritmlar”, “Tarmoqlanuvchi algoritmlar”, “Takrorlanuvchi algoritmlar” va “Aralash algoritmlar” mavzulari asosiy hisoblanib, bu bo'limlarni o'zlashtirgan o'quvchilarda dasturiy ta'minot yaratish uchun kerakli bilim va ko'nikma hosil bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarga ushbu bo'limlarni o'zlashtirishlari uchun kerakli nazariy va amaliy bilimlarni berish lozim. Hozirgi zamon ta'lim tizimida ushbu masalani yechish uchun turli ko'rinishdagi usul va metodikalarni qo'llash mumkin. Bulardan biri axborot texnologiyalarining multimedia elektron qo'llanmalar asosida dars jarayonini tashkil qilishdan iborat.

Tadqiqotda qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kreativ fikrlashiga qaratilgan veb-texnologiyalar asosida o'zlashtirish darajasini aniqlovchi me'zonlar, hamkorlik printsiplarini assimilatsiyalashga asoslangan multimediya vositalarini 3D loyihalash orqali sun'iy intellekt jarayonlarini tasavvur qilish ko'nikmalari

asoslangan. Multimediali elektron qo‘llanmada 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” faniga oid mavzular animasion ko‘rinishda mazmunan yoritib berilgan. Yaratilgan multimediali elektron qo‘llanma muqovasidagi kirish tugmasi ishga tushirilganda ekranda “Algoritmlar” bo‘limi ochiladi (1-rasmga qarang).

Ushbu paragrafda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining algoritmgaga doir tushunchalarini o‘quvchilarga tushuntirishda dastlab uning kelib chiqish tarixi, kashf etilishi, uning xossalari, usullari, tasvirlash yo‘llari, ularning turlari haqida ma‘lumot beriladi.

Ma‘lumki, kishilar kundalik turmushida turli-xil ishlarni bajaradi. Har bir ishni bajarishda bir qancha elementar (mayda-mayda) ishlarni ketma-ket amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Va bajarilgan ishlar ma‘lum bir natijaga olib keladi. Mana shu ketma-ketlikning o‘zi bajariladigan ishning algoritmi hisoblanadi.



1-rasm. Multimediali elektron qo‘llanma “Algoritmlar” bo‘limining ko‘rinishi

“Algoritmlar” bo‘limi darchasida algoritm tushunchasi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Shuning bilan birga mazkur darchada “Algoritmning xossalari”, “Algoritmni tasvirlash usullari” va “Algoritm turlari” mavzulariga doir multimediali elektron ishlanmalarga o‘tish tugmalari ham mavjud. Xossalari tugmasi ishga tushirilsa algoritmning asosiy xossalari darchasi ochiladi.

Algoritmning asosiy xossalari darchasidagi har bir tushunchaga oid tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi olib borilganda, mos ravishda xossalari tegishli ma‘lumotlar ekranda namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi rasmda darchada tasvirlash usullari tugmasi ishga tushirilsa ekranda “Algoritmning tasvirlash usullari” darchasi ochiladi. Algoritmlarni tasvirlash usullari darchasidagi har bir tushunchaga oid tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi olib borilganda, mos ravishda ma‘lumotlar ekranda namoyon bo‘ladi va

darchada turlari tugmasi ishga tushirilsa ekranda “Algoritmning turlari” darchasi ochiladi. Maskur darchada ham har bir turga tegishli tugmaga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilsa, unga mos algoritm haqida ma’lumot va masalalar tugmalari ekranda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida aytilganlardan ko‘rinib to‘rgan chiziqli algoritm darchasida har bir masala tugmasi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi bosilganda ularga xos masalalar va ularni yechish jarayonlari oynasi ochiladi (2-rasmga qarang).




1-masala: Sayyoh qishloqdan chiqib, shahar tomon yurdi. U a kilometr piyoda yo‘rganidan keyin avtobusga o‘tirib t soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus 60 km/soat tezlik bilan harakat qilgan bo‘lsa, $a=5$ va $t=0,5$ bo‘lganda, qishloq bilan shahar orasidagi S masofani hisoblash algoritmini tuzing.

Chiziqli algoritmga oid masalani hisoblash algoritmining bajarilish jarayonini multimedialar asosida ko‘rsatamiz. Buning uchun masofani hisoblashga doir so‘zli va blok-sxemali algoritmini tuzamiz. Bizning maqsadimiz o‘quvchilarga ushbu algoritmnini ketma-ket bajarilish jarayonini kompyuterda animasiya yordamida ko‘rsatishdan iborat.

←

1-masala

Sayyoh qishloqdan chiqib, shahar tomon jo‘nadi. U a kilometr piyoda yurganidan keyin avtobusga o‘tirdi va avtobusda t soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus 60 km/soat tezlik bilan harakat qilgan bo‘lsa, $a = 5$ va $t=0,5$ bo‘lganda, qishloq bilan shahar orasidagi S masofani hisoblash algoritmini tuzing.

so'zlar	blok-sxema	python
1)boshlansin; 2) a, t larning qiymatlari kiritilsin; 3)sayyoh avtobusda t soatda bosib o‘tilgan yo‘l: $S1=60*t$; hisoblansin; 4)qishloq bilan shahar orasidagi masofa: $S=a+S1$; hisoblansin; 5) S ning qiymati yozilsin;	<div style="border: 1px solid black; border-radius: 15px; padding: 5px; display: inline-block; margin-bottom: 5px;">boshlansin</div> <div style="border: 1px solid black; width: 80%; height: 20px; margin: 5px auto;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 80%; height: 20px; margin: 5px auto;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 80%; height: 20px; margin: 5px auto;"></div> <div style="border: 1px solid black; width: 80%; height: 20px; margin: 5px auto;"></div>	<div style="display: flex; justify-content: space-around; margin-bottom: 10px;"> <div style="background-color: #00b050; color: white; border-radius: 50%; width: 40px; height: 40px; display: flex; align-items: center; justify-content: center;">←</div> <div style="background-color: #00b050; color: white; border-radius: 50%; width: 40px; height: 40px; display: flex; align-items: center; justify-content: center;">→</div> </div> <pre style="font-family: monospace; margin: 0;"> >>> a = 5 >>> t = 0.5 >>> s1 = 60*t >>> S = a+s1 >>> print(S) </pre>

2-rasm. Chiziqli algoritmga doir masalani hisoblash darchasi

Chiziqli algoritmga oid masalani hisoblash jarayoni rasmda ko‘rsatilganidek, masalani hisoblashning so‘zli algoritmi, blok sxemasi va Python dasturlash tilidagi ketma-ket bajarilishi multimediali ko‘rinishda aks etgan.

Python dasturlash tili yordamida dasturlash jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirib o‘rganishni ko‘ramiz. Python dunyo miqyosida eng ommalashgan, mukammal dasturiy mahsulotlarni yaratishga mo‘ljallangan dasturlash tillaridan biri bo‘lib, uning yordamida web-sayt, ilova va o‘yinlar yaratiladi. Quyidagi imkoniyatlar bu tilni o‘rganish uchun yordamchi omillar

hisoblanadi. O'rganish va qo'llashning soddaligi. Python sodda va qulay dasturlash tili bo'lib, boshqa dasturlash tillariga nisbatan uning yordamida dastur tuzish murakkab emas.

Python dasturlash tilida mukammal kutubxonaning mavjudligi. Python da dastur tuzish jarayonida kutubxonadagi tayyor funksiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa murakkab dasturlarni ham qisqa vaqtda tuzish imkonini beradi. Python mukammal dastur bo'lganligi sababli, bugungi kunda Google, NASA va Pixar kabi firmalar o'z dasturlarini tuzishda ushbu dasturdan foydalanishadi. Python interpretatorini o'rnatishda mablag' talab qilinmaydi. Ushbu dasturni yuklab olib, kerakli ilovalari bilan bepul ishlatish mumkin.

Python dasturlash tilini o'rganish uchun rasmiy saytidan yuklab olib, o'rnatish zarur. Python kompyuterga IDLE dasturi bilan birga o'rnatiladi. IDLE dasturlashni endi boshlaganlar uchun mo'ljallangan IDE bo'lib, kod yozish uchun uncha murakkab bo'lmagan matn muharriri hamda dastur natijasi va xatolarni ko'rsatib turuvchi oynaga ega.

Python dasturini o'rnatishni multimediali elektron qo'llanma asosida o'rgatish jarayoni:

Python ning rasmiy saytiga kiriladi. Brauzer qatoriga <https://www.python.org/> manzilini kiritish lozim. Brauzer qatoriga <http://www.python.org> manzilini kiritib, qidiruv natijasida quyida oyna ochiladi va bu oynadan Download Python bo'limi tanlanadi.

Python ni yuklab olish. Kompyuter operasion tizimi (masalan, Windows) ga mos o'rnatgichning so'nggi varianti (Python 3.10.1) yuklab olinadi. Xuddi shunday yuklab olish, o'rnatish, ishga tushirish va o'zgaruvchilarni tavsiflash mavzulari ham multimediali elektron qo'llanmada ko'rsatilgan.

Python dasturlash tilini multimediali elektron qo'llanma asosida o'qitishni takomillashtirish metodikasi paragrafida ham masalani yechish jarayoni ketma-ket multimediali ko'rinishda aks etgan.


Takrorlanuvchi algoritmlar – biror buyruqlar guruhini ma'lum marta yoki belgilangan shart bajarilgunga qadar takroran bajarilishi. Takrorlanuvchi algoritmlarga doir masalalarni dasturlashda sikl operatoridan foydalaniladi.

for sikl operatorini avvaldan takrorlanishlari soni aniq bo'lgan masalalarni yechish uchun qo'llash samara beradi. Lekin har doim ham takrorlanishlar sonini avvaldan bilib bo'lmaydi. Faqatgina shart tekshirish orqali sikl davom etishi yoki to'xtash kerakligini xulosa qilish uchun while sikl operatoridan foydalangan ma'qul.

Takrorlanuvchi algoritmni o'quvchilarga tushuntirish uchun ham masalalarga murojaat qilinadi. Algoritmning bajarilish jarayonini ko'rsatuvchi multimediali elektron qo'llanma asosida tushuntirilgan.

1-masala. 5 dan 11 gacha bo'lgan toq sonlar ko'paytmasini, ya'ni $R=5*7*9*11$ ni hisoblash algoritmini tuzing.

Takrorlanuvchi algoritm darchasida 1-masala tugmasiga sichqoncha ko'rsatkichi bosilsa, takrorlanuvchi algoritmgaga doir masala va uni yechish jarayonlari ekranda namoyon bo'ladi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Takrorlanuvchi algoritimga doir masalani bajarilish darchasi

Xuddi shunday umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidagi qolgan bo'limlar va mavzular hamda tegishli masalalarini yechish jarayoni va bajaradigan vazifalari birma-bir multimediali elektron qo'llanmada multimedia ishlanmalar yordamida yoritib berilgan.

9-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" fanida Python dasturlash tilini o'rgatish bugungi kunda har bir umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun muhimdir. Shu sababli "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan Python dasturlash tili va ularni multimediali elektron qo'llanmadan foydalanib o'qitish metodikasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Dastlab Python dasturlash tilining asosiy vazifalariga to'xtalamiz va ularni multimediali elektron qo'llanmadan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratamiz. Ushbu dasturiy vositani o'qitishda odatda an'anaviy metodika asosida darslik yoki o'quv qo'llanmadan foydalanilgan holda o'quv materiallari tushuntiriladi. O'quv materialiga asosan o'quvchilar amaliy darslarda kompyuterda Python dasturlash tilining buyruqlarini qo'llashni o'rganishadi. An'anaviy o'qitish metodikasida o'quv materiallari o'quvchilarga matn, slayd va video qo'rinishida taqdim etiladi. Shu bois mazkur dasturiy vositani o'qitishga ancha ko'p hajmda soat ajratilganligiga qaramasdan o'quvchilar murakkabliklarga duch kelishadi. An'anaviy metodikadan farqli ravishda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining o'quv rejasida mo'ljallangan soatlarida Python dasturlash tilini o'rganish jarayonini multimediali elektron qo'llanma asosida o'qitish metodikasini keltiramiz. Ushbu metodikada Python dasturlash tili buyruqlarini ketma-ket harakatlar tarzida uning bajaradigan vazifalarini multimediali elektron qo'llanmalar asosida ifoda etish o'quvchilarga ko'rsatiladi va tushuntiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida multimediali elektron qo'llanmaning ta'lim berishga mo'ljallangan qismida o'quv materiallarini taqdim etganda o'quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e'tibor beriladi. Umumiy o'rta ta'lim

maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan amaliy darslar samaradorligini o‘quvchilarning dasturlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga ijobiy ta’sir etuvchi virtual-intellektual borliq mazmuniga oid multimediyaga asosida takomillashtirish dars jarayonida aniqlashtirilgan. Taqdim etilayotgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko‘rgazmali va yaxshi o‘zlashtirish uchun izohli ma’lumotlar tavsiya etilgan bo‘lishi, shuningdek, o‘quv materiallarida kerakli ta’riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Dissertasiyaning uchunchi bobi **“Multimediali elektron resurslar asosida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan tajriba-sinovning nazariy va amaliy natijalari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda pedagogik tajriba ishlari jarayonlari bayon etilgan hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilariga, maktab darsliklari bo‘yicha didaktik imkoniyatlarni, o‘quvchilarning oldindan tasavvur qilish, bashorat qilish, gipotezalarni shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, yaratuvchanlik, kreativlik kabi kompetensiyalarini rivojlantirishda nutqiy va lingvistik multimediyaga vositalarini integrativ joriy etish samaradorligi asoslangan.

Tajriba bo‘yicha olib borilgan izlanish jarayonida axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha mavjud adabiyotlar o‘rganildi va mavzuga doir ma’lumotlar, faktlar, vositalar hamda axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash bo‘yicha ishchi faraz aniqlab olindi.

Asosiy tajriba axborot texnologiyalarining vositalari asosida muallif ishtirokida 9-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan yaratilgan multimediali elektron qo‘llanma asosida olib borildi. Bundan maqsad izlanish bo‘yicha eksperiment natijalarini o‘rganish va ularni amaliy jihatdan tasdiqlash edi. Multimediali elektron qo‘llanmadan dars mashg‘ulotlarida foydalanish metodikasini yaratish va bu metodikaning o‘quvchilar bilim saviyasining sifat ko‘rsatgichini oshirishga ta’sir etishini aniqlashdan iborat edi.

